

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI
«IJOD» JAMOAT FONDI

RAUF SUBHON

XAYOL NIGOHI

She’rlar, nasr-u navo, manzuma

TOSHKENT
«ADABIYOT»
2021

UO'K: 821.512.133-1(081)

KBK: 84(50)6

C 95

Rauf SUBHON

C 95 **Xayol nigohi** [matn]. {She'rlar}/ R. Subhon.
– Toshkent: «Adabiyot» nashriyoti, 2021. –126 b.

Loyiha rahbari:

Sirojiddin SAYYID,

O'zbekiston xalq shoiri

Mas'ul muharrir:

Aziz SAID,

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

Taniqli shoir Rauf Subhonning ushbu kitobiga jamlangan she'rlari xayolingiz nigohini bolaligingizga, qishloqning yurak bilan so'zlashuvchi manzaralariga olib ketadi. Shoirning yoshlik, muhabbat, ezgulik, Vatan, umr bekatlari haqidagi tuyg'ulari, holatlar, manzaralar, suratlar va sog'inchli kuylarga aylanadi. Samimiyligi, tozaligi, yuragingizga yaqinligi bilan o'zingiznikiday tuyuladi.

ISBN 978-9943-6958-4-9

© R. Subhon, 2021

© «Adabiyot» 2021

YANTOQZORDA

Muzeyda osilgan katta choponni
Har kim ham ishonar alpniki desa.
Uyatga qo'yardi kichkina joni
Kimki bu choponni xayolan kiysa.

Har kim o'z jussasin yashirgan zamon
Alplarning davriga bo'lar gumoni.
Balki shular haqda betinim o'ylar
Yantoqning ustida yurgan chumoli...

1979

* * *

Hurmat qilardingiz meni shunchalar,
Dardimni ochilib aytgunga qadar.

1979

* * *

Biz ko'nikamiz
Ko'z bilan ko'rmaymiz
Eshitamiz:
Vijdon azobida
Hayratlanib yashaymiz har dam –
Kimni dahshatga solmas
Qog'oz bilan bironi o'ldirib qo'ysa,
Qog'oz bilan qozon qaynatsa odam?!

1979

* * *

Sevgilim,
Qor bo'roni
Qadamlarni sekinlatdi-da,
Yur, g'orga kiramiz,
Nafasimizni rostlab,
Ajdoholar uxlab o'tgan asriy jimlikda
Muhabbat haqida suhbatlashamiz...

1980

TENGLIK

Soyning u qirg'og'ida
Sen turibsan
O'tolmasdan...
Soyning bu qirg'og'ida
Men turibman
Nafasimni yutolmasdan...
Ko'prik yo'g'-u,
Ikkita xoda
Barobar shaklida tashlangan.
«Bu qanday tenglikdir?!»
Hamon o'ylayman.
Meni qiynab kelar
Tenglik tarzidagi
Topishmoq tuyg'u...

1981

SIZ HAM ESLAYSIZMI?..

Tuyakash bulog'i qanday yaxshiydi,
Eslab turasizmi siz ham odamlar,
Eng yomoni – hech kim yo'qlamay qo'ydi,
Qaridi tuyakash, qari hammadan...

Boshqaning bulog'i kech ko'z ochdi-yu,
Juda erta ayon bo'ldi adog'i.
Suv tinib, issiqlar o'rmalab dashtni
O'chdi... chor atrofda ko'pning chirog'i.

Birin-ketin hamma quduqlar qazdi,
Hayot chekinganin isbotladilar.
Dehqon bug'doy ekib qarzini uzdi,
Birovni birovga kesatmadilar...

Ko'nglimdan kechganin tushunsa agar,
Qoyalar yuzini yomg'ir yuwardi.
Ko'nglimdan kechganin tushunsa agar,
Tuyakashni yurtda hamma sevardi.

Qaytib kelmas endi ketgan tuyalar,
Bilaman ketmagan izlab natija.
Sizni chalg'itishdi ko'plab g'oyalar –
Siz ham ko'nmingiz inson shartiga:

Uchgan qush, bo'zlagan til davlatniki,
Uy-vatanli bo'lmoq «Hur» navbatniki,
Tuyalar nay chalib suv ichar, hatto,
Kindik qoning to'kilgan yer davlatniki.

Hayotmi bu hayot, chekindi uzoq,
Yo'qolgan g'ujumlar – qalin soyalar.
Bo'ynini cho'zishga yantoq topolmay
Qishloqni tark etib ketdi tuyalar.

1982

* * *

Noma yozib so'rabsan: «Nechun
Bosh chayqaydi tungi daraxtlar».
Aytay desam yetmaydi kuchim,
Sen ham savol eding bir paytlar.

Qanday aytay: Sevaman! – deya
Bunday havo sig'mas dimoqqa.
Javobimni o'sha daraxtlar
Tarqatadi yiroq-yiroqqa...

Derazangni kattaroq ochgin,
Vujudingga singar – «Sevaman!»
Daraxtlarga intizor boqqin,
So'raganing o'zim bo'laman...

1982

HOLAT

Ko'ngilning
Tubida
Bir ulkan
Daraxt,
Issiq qorga
O'ranib turar.
Bog'larni aylansam
Daraxtlar so'rar:
«Nechun xomushsan?»
Ularning hammasi
Gulli, yaproqli.
Sirtimdan
Guldayman,
Ichimdan muzday.
Mening fasllarim
Almashib ketgan.
Menga bu bahorning
Nasibasi yo'q,
Yanagi bahorni kutib yashayman.

1982

HAYVONLARNING MUHIM YIG'INI

Noligan
Hayvonlarning
Hammasi keldi:
Sigir-buzoq,
Echki-uloq,
Hatto,
Ro'zi cholning
Ipini uzgan ho'kizi.
Shataloq otib qochganlar ham
Tuproqlab keldi
Yuvosh qassob bilan suhbatlashgani.

1983

* * *

Ayiq
Uyqusidan
Uyg'ongunicha
O'rmon qonunlari
O'zgarib ketdi!..

1983

* * *

Vaqt –
To‘g‘ri
O‘lchamli
Xato tushuncha...

U aslida,
Xato o‘lchamli,
To‘g‘ri tushunchali
Baxtning o‘zidir...

1983

* * *

Sening so‘zlaring
O‘q emas...
Baliq ham emasdir.
Biron odam qarmoq tashlagulik.
Ular dimog‘ingdan
Sudralib kelgan
Toshbaqadir!...
Atrofga alanglab
Nimadir ko‘rsa
Bo‘ynini ichiga tortib olguvchi.

1983

* * *

O'zingni
Majburlab
Qayga urasan.
Unutasan hatto,
Odamligingni
Karomating
Ko'rmadim hali...
Men senga
Bir quloch
Zanjir beraman
O'zingni yaxshilab bog'lagin...
Bir kun...
Sherga aylanarsan, ehtimol.

1984

TUSHKUNLIKKA TUSHGAN DO‘STIMGA

Buzoq haqidagi maqol eskirar,
Lekin unutmasmiz somonxonani.
Xo‘roz vaqt belgisi emas, qichqirar,
Bugun xo‘rozi yo‘q ko‘p xonadonning.

Uylanish odatmas, sevish majburmas,
Jon koyimoq majbur, yashamoq majbur.
Ajrallish hech kimga an‘ana emas,
Hayotni beparvo bilmoqlik jabr.

So‘kinishing mumkin sog‘lig‘ing uchun,
Sendan ustun kelsa ojizlik kuchi.
Qanoting bo‘lmasa bag‘ringdir butun,
Atrofga zardobing sochmagin, yutin.

Sen faqat bilsang bas g‘olibligingni,
Hislaring o‘lmagan, demak, tiriksan.
ONA, degan tiling aylanib tursa
VATAN deb o‘lmog‘ing uchun keraksan.

1984

BOLALIK DO‘STIMNING AYTGANI

«Uning
Ismi
G‘arib edi,
Men uning
Ismi ayta olmadim...
Tanitmadim unga hatto,
Ishim tushib turgan Zamonni!..»

1984

* * *

Samarqand birgina yodgorlik emas,
Umr boqiy, degan farmoyish, zarur,
Minorlar odamzod ko‘kka uch degan
O‘tli kema, azal namoyish erur.

O‘limning tili yo‘q, hayotning so‘nggi,
Kechmishin bilmasning yo‘qdir vatani.
Tarixning ko‘ksi qon bo‘lsa ham bir rang –
Minor gumbazlari t i n c h l i k degani!

1985

BEKATDA

Men doim suyanib yashagan «yo'qlik»
Olma daraxtiga aylanib qoldi.
Keyin paydo bo'lib g'alati «to'qlik»,
Atrofim unutgan do'stlarga to'ldi.

Xullas, daraxtni ham kesib tashlashdi,
Dedi: «Yo'l o'tadi bu joydan, katta!»
«Yo'l bo'lsi-in?..» deb hatto bir kun so'rashdi,
Turaversam «yo'qlik» degan bekatda.

1985

* * *

Men
Seni
Sog'inganda,
Otini, omochini,
Yer haydashning gashtini,
O'z uyining tongini
Sog'ingan
Va qilichin sindirib
Daryoga otmoq bo'lgan
Jangchi kabi vujudim yongan!..

1986

TONGDA

Qishloqni uyg'otar qichqirib
Quyoshning sharpasi – xo'rozlar.
Qoraygan qirlarga kuch kirib,
Quyoshni ko'tarar parvozlard...

Chiqishar xalq Quyosh oldiga,
Bog'lar turar kiyib ko'ylagin.
O, Quyosh, hammaning qalbiga
Uyg'onish qo'shig'in kuylagin.

1986

* * *

Til aylanar
Bu yorug' dunyoni
Jannat deb atashga,
Shuning o'zi odamzodga qanot-da,
Muhtojlik bor bo'lsa
Oldingdagi oshni oshashga
Kim achinar, kim hayratlanar
Yashayotgan bo'lsang jannatda?!

1986

* * *

Kungaboqar,
Men senga qoyil qolmadim,
Quyoshsiz kunlaringni
Nuqul
Yerga qarab o'tkazding...

1987

XOTIRA KUNGI ZIYORAT

*Yosh yozuvchilarning plenumida
butifos oqibatlari
haqidagi nutqni tinglab*

Holsiz odam kabi oqargan
Yerda yomg'ir yaltirayverar,
Go'yo xavfni anglagan ko'zlar –
Pufakchalar mo'ltirayverar...

Ona yurtda har bir tepalik
Yurak mehrin yutib yotibdi.
Shoir borar ivib, yo'talib,
Nigohlari yerni uyg'otib.

G'amlarining tomiri uzun,
Suvga yetgan yantoq bo'ladi.
Haqiqatni ko'rganda ko'zi
Qabristonda g'amlar gulladi.

1987

SHAHARGA YO'L

Xayr,
Shirin uxlayotgan ukalarim!
Xayr, Ota,
Xayr, Ona,
Men ketayapman,
O'qish, ish
Va yana tashvishlarimga!
Xayr, sadoqatli do'st!
(Yo'lakda Olapar it g'ingshib qo'yar).
Ko'katlar...
Ko'katlar uzalar gul tutib,
Tongda tomlar osha ketayapman!
Onajonim qolar ko'zlarida yosh,
Qo'llarini ko'tarolmay,
Sog'inchin yutib.
Nigohim – uzun yo'l sirli ufqqa.
Onamning ko'z o'ngida
Meni shu ufq yutar...
So'nggi marta ortga qarayman,
Ko'rinmay qoladi onajonim ham,
Huv, ko'ringan UFQ –
Men kashf qilgan dovon,
Mustaqillik dovoni!
UFQ – onamni eslatgan
Ko'zlari yosh mehrlı diyda...

1987

YOLG'IZLIKNI TASAVVUR QILISH

Tashqarida yashar haqorat,
Faqat yolg'iz sen uchun yashar.
Bu kunduzing chalgan naqorat,
Tuning aytgan qo'shiqqa o'xshar.

O'qli miltiq kabi turasan,
Bo'g'zingda ham qator so'zlaring.
Xonangda tik, behad yurasan,
Nishon olmas garchi ko'zlaring.

Diling yonar, yonar to'xtovsiz,
Baqirasan, ovoz chiqmaydi.
Kiming yo'qlar, kim ham yo'qlaydi,
Dard bahaybat, faqat yiqmaydi.

Tashqaridan kim kirsa agar
Bo'shatarsan to'ygan ko'nglingni.
Tashqarining o'zi kirsa gar
Ko'rsatarsan kuygan tilingni...

1987

ONAMNING XATI

Supramga chang solarding
Unni qoriy boshlasam,
Emaklarding, yularding
Xamir uzib tashlasam.

So'ng deraza raxiga
Katta mixni qoqqanman.
Kamzulingga ip bog'lab
Nonlarimni yopganman.

Bugun-ku, sen kattasan,
Dadil turib so'zlaysan.
Ko'rayapman birovning
Suprasin ham buzmayсан.

Uyqusirab o'rgimchak
To'rlarida uxlasam,
Mixlar kirar tushimga,
Sovuq mixlar... ushlasam.

Ertaklarga – sen yozgan
O'xshar ekan bu hayot.
O'g'ilginam, onaning
Tinch uxlashi ham faryod!

1987

* * *

Tun
Meni
Shunchalar...
Sevib silkitdi,
Mayin
Shabbodali
Qo'llari bilan.
Men esa
Daraxtga
Aylanib qoldim,
Yaproqlari to'kilgan,
Mevasiz,
Yalang'och daraxtga.
O'zi esa
Poyimda
Yastanib yotgan,
Gohida to'lg'anib,
To'lg'anib boqqan,
Yuzlari oy kabi yoqimli
Yalang'och daryoga aylanib oqdi...

1987

MUSTAQIL BOLA

U katta ko'zguning yuziga ohaktosh bilan to'g'ri chiziq chizdi. Chiziqning ikki uchiga «ozodlik», «ozodlik» deb yozdi.

– Mana, sening yo'ling, – dedi ko'zguga qarab. Butun insoniyatning yo'li shu yo'l. Chapga qarab yurish to'g'rimi, o'ngga qarab yurishmi, yo bo'lmasa, bir joyda tepkilab turish to'g'rimi?!

Maqsad yutish emas, kutish ham emas, nafasing halolligin isbot qilishdir.

Ey, chiziqning ortidan menga qarab turgan Bola, men aslida yo'qman. Sen borsan. Sen mening aksim emas – ruhimsan!

Toza oqko'ylag-u oppoq shim kiyib, ko'zguning yuziga «Hozircha xayrlashmaymiz» deb yozib, hali-beri uyg'onmagan ko'chadan ketdi.

1988

* * *

Agar iqtidori yulduz tersa ham
Orsizga g'oliblik bo'lolmas hamdam.

1989

SHAXMAT XAYOLLAR

Ko'ksing yoqar so'zdayin:
«YO'LOVCHI»dan «YO'L» qoldi,
«BOLALIK»dan «BOL» qoldi,
O'ylamayin, yozmayin:
«HALOVAT»dan «HOL» qoldi.

Qalbingga ishq bog'landi,
O'lmas ishlar dardida
«BALOG'AT»dan «BOG'» qoldi,
Tuproq ham xo'p iylandi,
Miq etmagan «TOG'» qoldi.

O'zin anglay deb har dam
Almashdi ko'p do'st fasli:
«DIYONAT»dan «DIN» qoldi,
Uchib ketdi qushlar ham,
«INTIZOR»dan «IN» qoldi.

Ko'ngil kuygan so'zlardan:
Ne umidlar bor edi —
«IZTIROB»dan «IZ» qoldi,
Bu hayot – bog', girdida
«SO'ZON»lardan «SO'Z» qoldi.

1989

* * *

Ey,
To'ti!
Hozircha
Olganing
Beminnat nafas,
Dunyoning o'yini
O'ylab qo'ysang ham,
Shodlik semirmadi,
G'am ham ozmadi,
Vatanday bepoyon bo'lmadi,
Hatto,
Seni saqlab kelgan
Bu ozod qafas...

1989

TADRIJ

Qop-qora o'rmonda yashagan odam,
Negadir qamalgan sezdi o'zini.
Badani junjikdi, junjikdi yomon,
Najot so'raganday tikdi ko'zini.

To'yib ichdi... yedi... pishqiraverdi,
Halollik uchun ham erinaverdi.
Har ishga o'zicha bosh bo'laverdi,
Ko'ziga dunyo tor ko'rinaverdi.

Va bir kun u mendan so'rab ozroq nur,
Men senga yaxshilik beraman, dedi.
O'ziga erk berib yashagani hur,
U mendan nur emas, tiriklik oldi.

Men bilan yonma-yon, hamnafas yurib,
G'alati savollar yog'diraverdi.
To'rt tarafga tushgan soyamni ko'rib:
To'xtab tur sen hali, yaramas, dedi.

Kulib turib ko'mdi, bosh bo'lib ko'mdi,
To'rt qutbga ketgan soyalarimni.
U – erkin. O'zini har ishga urdi,
Yo'qotaman, dedi xayollaringni...

Topganini ichdi, tortganin yedi,
Senmisan, belingni qo'ygum bukchaytib.

O', men seni odam qilganman, dedi,
Damiga tiqilib, ko'zin chaqchaytib.

O'sib yotgan chinor, boqqa tik qarab:
O', men sizni odam qilganman, dedi.
Chinorlar yoshlari ming yillik daraxt,
Ularga o'shqirar kechagi jinni...

Aldabdi, yaxshilik beraman, deya,
Yana qulamoqda u bosh ko'p «taxt»lar.
Kunda kesar, tunda kesar, bildirmay,
Kesilmoqda odam bo'lgan daraxtlar.

Ho'v, mening qoshimda bo'yin bermagan,
Daraxtlar sayriga har kun shoshasan.
Qasoskor chinorlar, eh, kechirmagan,
Sovuq shamol kabi xayrlashasan...

Bulutli o'lkaga ketgan qaytmagan,
Bulutli o'lkadan kelgan kezarmi?!
Ketganlar kim, bizga aslo aytmagan,
Ketganning daraxtin kelgan kesarmi?!

Nafsi – dunyo... bo'lgan beyuzlik yomon,
Dushmandir sir tutgan maqsadlaridan.
Qutulib bo'lmaydi, qorong'u odam,
Haqiqatning barcha dahshatlaridan!

1989

SO‘ZLARIM

So‘zlarim – do‘stlarim-ey, shumi sizdan
kutganlarim:

Sevgi-yu Sadoqat kelishmas emish,
Yaxshining ortidan yomon yurarmish,
Sog‘lar ham qorong‘ida topishar emish.

Ey, mening do‘stlarim-ey, qanday bosh
ko‘tarib yurayin.

Ba‘zan shu ahvolda qolib, ot og‘ziga suvliq
solib, yuganidan tortib-tortib, yomonlarning
orasidan «soy»lab-«soy»lab va «irmoq»lab, ba‘-
zingizni «qo‘shtirnoq»lab, goh hovuchlab, goh
«qavs»lab omon-omon olib o‘taman.

1989

SO'NGGI LAHZA

Borliqdan yo'qlikka aylanishing bor,
Hamma sening holingga qarab:
«Yaxshiydi», yo «bandalik» deydi.
Sen shunday rost so'zga aylanasan,
Aylanasan bir kun tuproqqa,
Balki tomirlarda kezib yurarsan,
Biron tirik jonning tomirida
Umr rostligini isbotlash uchun...

1989

MUNOJOT

Daralarni tinglayman,
Tog'ni, bosgan yo'limni,
Umrinni-yu, besh kunlik
Besh asrlik sevgimni...

Ohularning dupuri
Yuragimni tilyapti...
Aytingizlar Majnunga,
Eh, dardlashgim kelyapti.

1989

BAHORNING BIRINCHI KUNLARI

1

Cho'qqidagi oppoq qo'shiqni
Tog'dan kelgan jilg'alar aytsin.
Yer-u ko'kka sig'magan ishqni
Eshitgan shod turnalar qaytsin.

Tabiatdir qadim kuyimiz,
Tabiat teng, barchaga qardosh.
Bahor esa asl to'yimiz,
Bahor yer-u ko'klarga sirdosh.

Bahor kelsa iqbol gullarin
Taqib yurar mastona qizlar.
Boshlanadi charog'on kunlar,
Sirli tunlar, sirli kunduzlar.

2

Mushuk chiqqan kuni oftobga
Unutar it boyloqligini.
Oftobro'yda kerilib qo'yar
Bildirmasdan maymoqligini.

3

– Bugun zo‘r kun, gapirma, gapir,
Bir aylanay, huv, Kenja yoqqa.
Derazani ochgin-da, kampir,
Buzoqchani ol kunchuvoqqa.

– Qurib ketmang, tag‘in kun bo‘yi,
Og‘il, ayvon kuralgani yo‘q!
...Illo, bobo ketar kun bo‘yi,
Kun bo‘yidan uning ko‘ngli to‘q.

1989

BOLALIK KUNLARIMDA

1

Buloqsoydan quyosh chiqib
Bozorjoyga botardi.
Ot minganlar namozshomda
Shamolliga o'tardi.

Oqtovning bor arig'idan
Oy oqsa ham tunlari,
Serrayardi ko'kka boqib
Teraklari, tollari...

2

Har kimki o'z yulduzin ko'rsa
Quvonardik ich-ichimizdan.
Bolalarning yulduzi oldin
Chiqar edi barcha yulduzdan.

Bolalikning tafti bor bunda,
Ona qishloq bunchalar go'zal.
Orzu bergan oydin tunlarda
Yulduzlarga o'qirdik g'azal.

Tunning sehri – oy o'tar bo'lsa,
O'tar edi to'zg'in qoshimdan,
U tun bo'yi kezsa, aylansa,
Aylanardi mening boshimda...

1989

TUNDA

Hovliga, shohsupaga
Solganda joy onamiz.
Aytishib aka-uka
Matallardan kulamiz.

Yo'lovchi gar yo'talsa
Buzardi matallarni,
O'zgarib suhbatimiz –
Yulduzga gal o'tardi.

Mayda ham bo'lsa yulduz
Bariga nom topardik,
Sehrli uyquga biz
«Somon yo'l»dan ketardik.

1989

* * *

Bulutlar
Qoyalarni,
Yig'layotgan bevalarni,
Qora tutunlarni eslatar...
Bulutlar marhumlarga o'xshamas faqat.
Chunki ular tosh bo'lib sochilgan Vatanga,
Gulingni tuproqqa otma, bu nola,
Sen uni biron-bir tosh ustiga qo'y.
Qo'ldagi noningni tashlama, bola,
Sen uni biron-bir tosh ustiga qo'y.

1989

TUSHUNCHALAR

Sevgi nimaligin
Tushungan bo'lsang,
Sevmagan bo'larding
Meni shunchalar...

Yashash nimaligin
Tushungan bo'lsang,
Yashashdan to'xtaydi
Ko'p tushunchalar...

1989

* * *

Sovuqdan qoraysa daraxtning tani,
O'zga yurt bo'ladi qushlar makoni.
Qushlarning maskani qiynaydi meni,
Qiynaydi huvillab qolgan vatani.

Daraxtlar turibdi qishning qoshida,
Termulib to'kilgan xazonlariga.
Men uning dardlarin asray boshladim,
Asradim hattoki armonlarini.

Daraxtlar tebranar, bulutni haydar,
G'uborlar yerdamas, osmonda kabi.
Qushlar qaytishini ularga aytar
Boychechaklar ungan ariqlar labi:

Qaragin... qaytmoqda... aytgan baytlaring,
...Duvillab bag'ringga qo'ngan dardlaring...

1989

* * *

Men xunuk kulaman, xunuk soʻzlayman,
Lekin his qilaman xush ovozlarni.
Agar kerak boʻlsa qattiq boʻzlayman,
Toʻzgʻitib yuborgum bor qogʻozlarni...

Qoʻrqaman qoshingda gap sotgani ham,
Tinglayman men seni, faqat tinglayman.
Shunday oʻldiraman qalbdagi gʻamni –
Qadrdon gʻamlarga achchiq yigʻlayman.

1989

* * *

Bir tutam kun...
Men uni hovuchlab,
Bekitib olaman mushtlarimga
Va tungacha shunday asrayman.
Bir tutam kun
Qo'llarimda namozshomgacha
Sehrli toshlarga aylanar.
Tunda esa bemalol,
Qulochim yozib,
«Tosh»larni
So'qmoqlar tomon otaman.
So'ngra, tonggacha
Uxlamasdan tinglab chiqaman.
Sehrli-sehrli ovozlalar...
Tunda turib,
Qo'lingizni musht qilib,
Ana shu so'qmoqdan o'tib qolsangiz
Ko'zingizga ko'rinadi
Faqat yaxshilik...
Yaxshilik haqida o'ylay boshlaysiz.

1990

QIRQ KUN

Ko'zlaring qalbingga bo'ysunmay qo'ydi,
Ko'zlaring adashgan odamday chopar,
Sen shunda eng yaqin tomiring suyding
Yaxshi bilan yomon aralash paytlar.

Ko'zingda qurigan armonlar... To'kmay –
Ularni qalbingga birday qalading.
Yoqding qirq kun qalab hech joyga chiqmay,
Qirq kun o'z qalbingni tinmay talading...

1990

* * *

Yomg'ir-yomg'ir, yoshim o'tar,
Bu zaminga toshim botar.
Asli men ham sendaydirman,
Ortimizdan tonglar otar...

Yomg'ir-yomg'ir quyib qo'ysin,
Yer-u ko'kni suyib qo'ysin.
Shitir-shitir qadamlardan
Qo'zigullar kulib qo'ysin.

Yomg'ir-yomg'ir, yorim bo'lgin,
Yuzimni yuv, orim bo'lgin.
Men aytaman, dardlarimga
Jaranglagan torim bo'lgin.

Yomg'ir-yomg'ir o'rim soch-o,
Sir ochilsa xashak-xas-o...
Men changitgan ko'chalarga
Mayin-mayin chimlar bos-o...

Yomg'ir-yomg'ir, yoshim o'tar,
Bu zaminga toshim botar.
Asli men ham sendaydirman,
Ortimizdan tonglar otar...

1990

BEDORLIK

Yaxshilik,
Suratingni chizdim,
O'chirdim,
Tuzik
O'chirsam ham
Senga o'xshab qolaverardi...
Mana,
Qancha bo'ldi
Nafsning yuzlarini bo'yayman,
Qiziq,
Senga o'xshab qolganin
Sezdim.

1991

* * *

Diydorlar g'animat, sog'inchlar jo'shqin,
Ishq degan miskin-u mol-davlat to'sqin,
O'zim ayamabman, bermabman taskin,
Menga ko'ksida dard borlar qo'l cho'zdi.

Bog'larda qizargan gullar rang berdi,
Soylarda bo'zargan tollar rang bo'ldi,
Tog'larda uzangan yo'llar bong bo'ldi,
Menga ko'ksida dard borlar qo'l cho'zdi.

Boshlarim silagan kunlar ham bo'ldi,
Yoshlarim g'am qotgan tunlar ham bo'ldi,
Sochim oqartirgan im...lar ham bo'ldi,
Menga ko'ksida dard borlar qo'l cho'zdi.

Shukur qilganlar hech beyuz bo'lmaslar,
O'g'il-qiz o'stirgan beiz bo'lmaslar,
Inson e'tiborsiz, yolg'iz bo'lmaslar,
Menga ko'ksida dard borlar qo'l cho'zdi.

1991

E'TIQOD

Quyosh bilan
Suv yuzlashganda,
Shudring –
Hadiklardan
Junjikkanda
Odamning eti,
Yangitdan
Bosh ko'tarib turar
«Assalomu alaykum» –
Suvo'ti!..

1991

SHE'RIYAT

Sabrimning o'zani –
tuyg'ular tomar,
Tomchiki, dunyoda yo'qdir mezon...
Biroq bir kenglik bor –
Hurriyat,
Hur esgan shamolin
Shakli bayroqdir...
Ko'ksim – tog'-u,
Nigohlarim – daryo,
Manzillarimiz – tuproq.

E'tiqodim, imonim, otam, onam,
Singlim, ukam, sevgilim,
farzandlarim –
Shu kenglikning keragi ko'proq...
Barisi bir tomchi,
To'ksam olam yorishgay...
Shu tomchi yoritgay mening ham yo'lim,
Shu yo'ldan mangulik sari ketaman,
Barisin jamlasam
keng Vatan bo'lgay,
Vatanni qalbimning mezoni o'lchar.
Barchaning ko'ksida shunday cho'g' bordir,
Uni aytar bo'lsa shoirlar aytar.
Aytgani bir tomchi yosh bo'lar.
Shu tomchiga tushmish dunyoning aksi...
Sabrimning o'zani –
tuyg'ular tomar,
Toma... tomar baxt tomchilari,
Shoirlar Vatanning ko'z yoshlaridir...

1991

QUSHLAR QO'SHIG'I

1

Sog'inib qaytamiz
Shu yurt taftini,
Sog'inib aytamiz
Qushlar baxtini.

Bizni nelar chorlar
Shunchalik ilhaq,
Siz nechun kutasiz
Bunchalar barvaqt?!

Bizga oson emas
Janubdan qaytish,
Oson bo'lmaganday
Sharqni tark etish!..

2

Biz doim tinchlikni kuylab uchamiz,
Ko'pchilikmiz, ko'kni yorib o'tamiz.
Dunyoning qushlari bo'lmasa agar,
Parvoz yolg'iz ishi emas, netamiz?!

Bahor chorlamoqda O'zbekistonda,
O'zbekiston erur bor qo'shig'imiz.

Manzilda bermalol in qurajakmiz,
Bizni chorlayotgan yurt – beshigimiz.

Notinch o'lkalar ham talpinib qolar,
Tinchlik chorlamasa ortga qaytmasdik.
Qay yurtdan topolsak manguilik bahor
Boshqa o'lkalarni aslo aytmadik!..

Hozircha yo'ldamiz, hur parvozdamiz,
O'zbekiston, degan jo'r ovozdamiz!..

1993

* * *

Bilaman,
Sen
Meni
Tinglayapsan.
Bir
Gul bo'lib,
Bulbulingni
Anglayapsan.
Bu purviqor
Tog'lar orasida
Balki,
«Sening aks sadong yo'q-ku?!» deb
Qo'ymayapsan,
To'ymayapsan...
Ovozim
Toshlarga
Singishib ketmoqda...
Ko'zlaringda,
Yuzlaringda hadik –
Senga nasib qilmay qolgan,
Toshlarga singishib ketgan aks sadom...

1994

USTOZ-SHOGIRD

- Dunyoda tez nimadir?
- Bu, shubhasiz, ziyodir.
Kunni qarang yorishgay,
Yer-u ko'kni suyadir!..
- Ibtidodan nur hali
Bizga yetib kelmadi.
Odamdan ham avvalgi
Yorug'ni yer bilmadi.
- Demak, tezdir ilohiy,
Rasul olgan ul VAHIY!

1994

* * *

Ko'zlaringga boqaman...
U menga
Ming yillar narini ko'rsatar.
U men uchun
O'tmishdan saqlanib qolgan,
Miltirab ko'ringan
kattakon ko'z yosh...
So'z aytishga hojat yo'q...
U bugun
Yurt osmonida
Hurriyatni ko'rib,
Vatan degan so'zga aylanib,
Botishni unutib qo'ygan bir quyosh...

1996

BAXSHIYONA

« ... Quyosh bilan Oyni ajdaho yutib
yuboradi. Uni bir botir qutqaradi...»

«Ertakdan»

Gul bargi tomchilaydi,
Tol bargi qamchilaydi.
Terma ayting, baxshilar,
Kuy bilan g'am chiroyli:

Yurt qorong'i, tor bo'lsa
Botir ko'ksi yer bo'lar.
Quyosh yutgan, Oy yutgan
Ajdaho bedor bo'lar.

Tun uxlaydi, kun uxlar,
El bo'g'zida un uxlar.
Yer-ko'k ajdar og'zida
Bu qorong'u dun uxlar.

Bu ertakmi, ermakmi,
Bir o'lib so'ng turmoqmi,
Barcha yaxshi-yomonni
O'z-o'zidan so'rmoqmi.

Harna ko'kdan sir bo'lar,
Botir ko'ksi or bo'lar,
Oy-Quyoshni qutqargan
El og'zida zo'r bo'lar.

Gul bargi tomchilaydi,
Tol bargi qamchilaydi.
Terma ayting, baxshilar,
Kuy bilan g'am chiroyli.

1997

* * *

Ilinib yashashning ilojin topmay
Odamzod suyanib yashashga o'tdi...
Suyangan qirg'og'i nurab bitgan kun
Ikki qo'l jon holda ko'klarga ketdi...

1998

* * *

Dunyoda eng shirin – ko'ngil halovat,
Qo'rqita olmaydi shayton, falokat.
Topmasa o'zi-yu, yoshi ulug'lar
Barokatsiz bo'lar umr, balog'at...

1998

* * *

Ko'zimga ilingan Quyoshmi yo Oy...
Qay birin aytayin, bu qandayin Sir...
Yumsam zimistondir, yummasam Chiroy...
Yumilsa... bu yashab o'tilgan Umr...

1998

KUNDALIK ODAM

Kundalik yozmoqda kundalik Odam.
Ko'rganlarin yozar, bilganin yozar.
Bilmaganin taxmin – bashorat qilar.
O'zini donolar safiga qo'shar.
Ba'zan oshar, ba'zida jo'shar.
Barmog'in uchida ko'rar u Xalqni.
Bilmaydi, oyog'in tagida yer aylanishin.
Yurganida zamin ortga og'ishin.
Ko'pda u bashorat qilib yanglishar.
Kundalik yozadi kundalik odam.
Xuddi dorboz kabi yurar, tekis yo'llarda.
Bir yuzida quvonch, bir yuzida g'am.
Yuzida posangi buzilgan.
Kunda... kundalik yozar.
Kundalik odam... kunda... kundalik...

2000

VATAN

*Yoz kechasi. Osmon-falakda
Kunduzning kitobi o'qildi.*

R. Parfi

Oftob o'qir Zamin kitobin. Varaqlaydi
Umr shamoli. Unda takror Inson xitobi.
Va ibrat bo'lgulik a'moli... Osmon ko'z
yumsa gar aylanar, oq belbog'lik ko'k-
yashil rangga. Sirli kecha, ko'k yulduzlari –
esar bayroq O'zbekistonda.

Demak, ko'k tush ko'rar bizlarni.
Sahifada Vatan tasviri. Mustaqil, hur
yigit-qizlarni, ko'rar u jannatning aksini.
Tongi otgach, sahifa titgan oftob topmas
boshqa o'xshashlik. Dunyo go'zalligin his
etgan taqdirlarni o'qiydi shoshib...

2000

TANISH IBORALAR

O'tmishda aytganlar bugunga to'g'ri kelmas. Bugunning gapi ham kechadan o'zgacharoq. Bunday xalq naqlidin yomonlik uqib bo'lmas. Iqbolim deb yongan taqdirlar o'zi shundoq... Fikrni uqsang-u, tiyilsang yaxshi odat. Gapni chuvalatmoq ojiz odamning ishi. Jasorat qilichin sindirgan jangchi nahot, maydonda surar ot, u o'zi qandoq kishi... o'zini qayerga qo'yarin bilmas kimsa, sahnada tomosha ko'rsatishi shart emas. Tevarak nazarin xo'p o'rgangan bo'lsa ham, aqoidda to'g'ri-yu, amalda mard bo'lmas...

2001

DARCHADAN BOSHLANGAN HAYOT

Hali sevib-sevilmagan yigitni tun qo'ynida bir quchoq nur qarshilar. Tong sahar miltillab turgan umidni oshiq nigo-hidan kunduz o'chirar.

U hayot neligin anglay boshlaydi. Tuyg'ular takrorlar qalb haroratini. Yolg'izoyoq yo'lni ko'rsa, yumshaydi. Farq-laydi hazilni, kek, malomatni. Umrning kechishi tezlashib ketar. «Hayotmi... eh!» deya ash'orlar bitar. Shunday ulg'ayarkan odam, tinglasam: Bir kuni o'limdan so'z-lashib ketar...

2001

BEMORLIKDA TUN MANZARASI

Tun qorong'i, ko'chada qator, ko'milgan to'sinlar chiroqsiz. Sening farqing – vujuding yonar, serrayib turibsan keraksiz... Jim turib qolasan, yuzingda hayotning kesishgan izlari. Vujuding qoplaydi bir zumda, yolg'onning yashagan kezlari... Nasibasin yashar har odam, nafasini rostlaydi jumla dun. Qo'shiq aytmas ekan qushlar ham, charog'on bo'lsa ham garchi tun.

Tunning yorilganini bilsang-da, kunduzdan yamaysan ko'ksiga. Bu seni ovutgan bo'lsa-da, ko'rmasang-da ishqning aksini...

2002

ILM ISTAGI

Yomonlik qo'lingdan kelmas, bu aniq.
Yaxshilik tugundir, shunday yechilmas.
Bilganing qulf ekan barcha eshiklar. Qo'l
cho'zib borsang ham kunday ochilmas.

Sen tikka yurmading, aylanib yurding.
Neki aylanadir, bari mukammal. Oyog'ing
yerdamas, asli osmonda, shu sabab chor-
laydi ko'kka bor amal.

Tong ottirgan xo'roz ucha bilmasa... Ot
yetalar odam... otga minmasa... Ichingda
g'iybatlar bir zum tinmasa, ularni sirting-
da oshkor qilmaysan...

Uchsa ko'ngil uchar, yana ruh uchar,
uchgan odam qaytib yerga qo'nmaydi...

2002

QUDRATLI YURTDA

Ko'krak samolarni surar nariga... Bu qudrat ruhimni bezovta qilar. Qo'l siltab ketolmam rizqning bariga, har tongda ko'ksimni bir yulduz tilar...

Bu rizqning barisi musofirniki. Musofirdan-musofirga qolar omonat. Ochunda mehmonman, neni qo'riyman?.. Ko'ksimga tuyog'in bosganday bir ot... Kahrabo to'lqinlar umidbaxsh o'tday... Umrin o'tayapti xizmatchilikda. Mehnamim tunni-yu g'amni aritgay. Kibr bor aslida izzatchilikda.

Har doim shukrimni bildirib qo'yib, yashayapman pokiza yurtda, vatanda. Takrorlayman har kun farzandligimni, bag'ishlab borimni O'zbekistonga!

2003

INTIZORLIK

Sen bir dengiz kabi to'lg'anadursan,
Men bir dengiz kabi uyg'onadurman.

Bu aylana yerda bizga qirg'oq yo'q,
Ne bo'lsin, dunyoni shundoq bermoq yo'q...

Birgamiz... o'rtada qancha parda bor,
Yorug'likning o'zi senga intizor.

Men tamom... Qalbingga kira olmasman,
O'zdan chiqib, chora ko'ra olmasman...

Bu rostlikni senga isbot qilolmam,
Zanjirim nurdandir, isnod bilolmam.

Meni kim desang de, aytaverasan,
Ufqqa bosh urib qaytaverasan...

«Hech kim emasdurman!» – meni o'ldirar,
Faqat shu muhabbat kamim to'ldirar.

Bag'rimda bo'lsang-da, nedan ajrimmiz,
Dunyoni to'ldirar bizning hajrimiz.

Biz faqat parlanib ketsak bo'ladi,
Biz faqat zorlanib o'tsak bo'ladi.

Sening harorating boshqa, boshqacha...
Sening tarovating boshqa, boshqacha...

Sen bir dengiz kabi to'lg'adursan,
Men bir dengiz kabi uyg'onadurman.

Bu aylana yerda bizga qirg'oq yo'q,
Ne bo'lsin, dunyoni shundoq bermoq yo'q.

2004

OQTOVDA

Tosh quladi, oqar toshlar... tosh quladi,
Cho'qqi – yoshlik, chiqsam ko'nglim yosh bo'ladi.
Men o'rlayman, qoyalar to'q jigarlarim...
Ko'kdan boqar ota quyosh xush kuladi,
Bora-bora qoyatosh ham past bo'ladi...

Pastga boqsam past – yo'l, chorlar uzun-uzun,
Yaqinimdan – qoya degan, tosh jiladi...
Cho'qqilarda ko'ray deyman bosgan izim,
Izlar uzoq, ko'kda qushlar sas qiladi:
– Dil-tilingga seni bu yurt mos biladi!..

2005

* * *

Qora tunni gulxanlarda yoq,
Saksovul-u yantoq, o'rikni.
Shunchaki yoq, qala erinmay,
Ko'rmaydursan alam, kuyukni...

Iztiroblar shaklida qala,
Shu gulxanlar sen uchun mayoq...
Toki quyosh bo'y cho'zmaguncha
Qora tunni gulxanlarda yoq!..

2005

SO'NAYOTGAN KO'Z HASRATI

1

Qullik
Qilgan bilan
Daraxt ko'karmas,
Doimo egilib turasan banda!
Pullik
Ado etgan
Ibodot bo'lmas,
Yuzingni ko'rishga shubha bor menda!
Tullik
Qildingmikan
Yuzing burasan,
Seni do'st ko'rsatmas bu yolg'on xanda!
Yillikmisan,
Asrlikmi, bilmadim,
Qiliqlaring nishonlatding amallab,
Qanday tik boqasan VATANga!

2

Ko'zlarini
Chorlab turgan
Rishtalar-da, uzilsa,
O'rtalikda
Kimdir qurgan
Ko'prik, devor buzilsa,
Qadamingga
Intizordir
Qaytar yo'lda xas yo cho'p...
Atrofigda uchmay qo'ysa
Qushlar g'ujg'on, talato'p...
Seni bir zum tark etmagan
NAFAS – O'LIM yashaydi,
Qurgan bo'lsang hayot yo'ling,
Ekkan guling yashaydi!..

2008

ABDULLA QODIRIY

Kunduzlarim kunlaydi,
Tunlarimda tun mayli...
Subh o'tidin sas kutdim,
U ham bir hol gullaydi...

Ro'yomi yo tasodif,
Yorilayin kimlarga,
Ko'kayimni kessangiz,
Xabar bor kun-tunlarga.

Odam fe'li teskari,
Kunda tunni o'ylaydi.
Hardamxayol sarsari,
Tunni kunga ulaydi.

Kun baralla kuylanar,
Borin tinglar tashqari.
U yo'qlikka boylanar,
Ochilmas dil qopqog'i.

Taqdir temir izi bor,
Bu bekat-u, bahormas...
O'tar yo'lga ham boqar –
Gunohkor-u, xor emas...

Ichi eski bir matoh,
Yangicha u g'ichirlar.
Qulog'iga bir maddoh,
Eh, eskicha pichirlar.

Kunduzlarim kunlaydi,
Tunlarimda tun mayli.
Subh o'tidin sas kutdim,
U ham bir hol gullaydi...

2009

DARD TOG'I

Uzoqlar chorlaydi bag'riga meni,
Ayniqsa, daryolar, qishloq, o'zanlar,
Cho'qqidan kuzatsam atrof, anvorni...
Tog'day qadrlamas, bilsam, mezonlar
Dardlari uyulgan menday bedorni...

2009

OHU

Tog'lardan termildi, bog'dan kuzatdi,
Botqoqlik ortida to'kislik, ko'klik...
Haydasa o'tmaydi agar yuz otni...
Orin bermaganday bironta haqli...

Hayotda boshqa bir qoida yo'qday,
Bir sakrasa go'yo to'lardek bag'ri,
Botqoqlik ortida hayvonlar to'qday
O'tsa yashaydimi ishonchi, ori?!

Ortiga qaraydi, odamlar o'qday,
Poylaydi, sayyodlar kun ko'rsatmaydi.
Hech bir jon tinch o'tmas, botqoqlik yutgay,
Bu hududda bo'lmas ko'ngilning mayli...

Ko'ziga ko'rindi rohat, farog'at,
O'zimcha yashayman, dedimi ohu?..
Bir joyga kelganda yutdi-ku, botqoq,
Ko'zida jim ketdi xayoli, ohil..

2010

* * *

«Oynai jahon» ishq
Farhod-u Shirindandur,
Bu dunyoning kam-ko'sti
Fosh qilgan siringdandur...

2011

* * *

Tunda nidolarim ko'kka qorishar,
Xuddi o'zing ekan atirgul, bugun –
Jur'ati yetmaydi sevdim deyishga,
Derazangdan boqar, shoxlari tugun...

Men yengil tortaman, qarshilab tongni,
Tong xotirjam, ishqim gulbargga yozib...
Mehrimg qalb mehrobin taxtidan tushib
Gulbargdan taralar, hidlashing sezib...

2011

QANOTLARIM...

Ota-onam o'rdilar,
Yo'qotdim qanotlarim.
Kimlar parvoz kutdilar,
Sinashdi sabotlarim.

Qadim qir-tepalikdan
Bilgan kabi tarixni,
O'rtanar kim, uyuldim,
Qanotsiz-u, horibmi...

Qanotimning o'rnidan
Duo o'sdi, or o'sdi...
Ko'ringanday dunyoning
Biroz gina, kam-ko'sti.

Otajon, onajonim,
Tushlarimda suyasiz.
«Bolam, tonglar otdi» deb,
Uyg'otib ham qo'yasiz.

Yorug' dunyom edingiz,
Hech kim g'amga botmasin.
Ojiz banda dog'i ko'p,
Dunyosin yo'qotmasin!..

2011

* * *

Oy
Yerga cho'kadi,
Nurlari
Izlarni uvalar...
«Yo'l bo'lsin?!»
Ovozin yutadi...
Tong otadi...
Yer ko'kda yumalar...
Aqlingga sig'maydi,
Xayolingga ham...

2011

* * *

Shamol yo'llariga chiqib qarayman,
Notinch o'ylarimga kelgan zorliqdan.
Neni qidiraman, yolg'iz so'rayman,
Mehrim, muhabbatim bo'lgan borliqdan.

Shamoldan balandroq yangrar navolar,
Ichimni tinglayman, hayron bo'laman.
Ko'z tikkan bulutlar xuddi bobolar,
Men ham shukur qilgan kichik bolaman.

Shamol qattiq essa, olmam malolga,
Shashtim sekinlashar aql – soyadan.
Dunyo kezar, bilsin, – deyman shamolga:
– Olam yaralmagan fikr, g'oyadan...

2011

NOQIS HODISA

(Hangomadan)

...Bu bir yirtqich itmikin,
O'h, juda yomon hurdi.
Tish ko'rsatib, jag' kerdi,
Tinmay o'z-o'zin yerdi.

Indolmadim. Tosh qotdim,
It zanjirin g'ajidi.
Sollanib xo'roz o'tdi,
Ko'rsatib ol tojini...

Bunday jur'at qilmasdi
Biron posbon yo do'xtir.
Ey, xo'rozga gap yo'qdir,
Maqsading unga uqtir.

Jim bo'ldi tegra olam,
Men bo'shaldim, qotgandim.
Aslida bir do'stimning
Ko'chasidan o'tgandim...

2011

QISH

Kelishingni ko'p kutdim
Kuzni kuzatganim chog',
Bulut xabarday o'tdi,
Qorayib qolganday bog'.

Bir tunda yer yorishdi,
O'randi momiq qorga,
Oqlikni xush ko'rishdi –
Erishdi bog' viqorga...

El-u yurt kuylab yurdi
Bolalar quvonchini:
"Baxt-u iqbolin bergil,
To'ldirib qulochini!.."

Yerni quchsang rizq bitar,
Sirlidir tun, har nahor.
Sen bilan olqish o'tar,
So'ng ko'nghlimda hur bahor.

2011

IQTIDOR

Daraxt o'sar, lekin gullamas,
Kimlar o'ylar, kimlar o'ylamas,
Tuproq'ida bir gap bormikin
Yoki o'sar joyi tormikin?..

Vijdon qani senda, deb bo'lmas,
Axir uning ildizi o'lmas,
Ko'k ishqini bermasa bekor,
Hayot baxtin termasa bekor!..

2011

TIL

It holi-jon, tilin osib qo'riqlar,
Oq-qora rangda ham to'kis dunyosi...
Ne maqom ko'rsa kam, aqli tiriklar
Tillarini sudrashar – sudrar hayosin!

Tilni qadrlamay, nizo sochganga
Donishmand yoribdi bir kun dilini:
«Mana, ol! Zoye so'z ojiz belgidir!» –
Shunday tadqiqotchi kesar tilini.

Til tarjimon zabun inson zotiga
Va hamdam, yordamchi bo'lar so'nggi dam.
Nasr-u ash'or kelsa qalbi qatidan –
U kuchdir, u ishqdir, u – iymon, Vatan!

2012

OILA

Yaralmishni o'zni turfaki,
Tushidagin hushi tuyolmas...
O'zni boshqa ayol-erkakning,
Xulqi qobil erlar bo'yalmas!..

Dili toza xayol qiladir –
Ayol orzu yonsa chidolmas...
Ostonadir erkak, biladir –
Orin ortib uchib-qo'nolmas!..

O'rtalikda hur Vatan bordir,
O'rtalikda bir tan-bir jondir.
Aslin aytsam, tanti, xalqparvar
O'ZBEKISTON degan makondir!

2012

KECH KUZ

(Turkumdan)

1

Bahor to‘yinadi ko‘klikka,
Yoz cho‘zilar oyoq uchida,
Kuz singib ketadi yo‘qlikka,
Qish, albat, ishonar kuchiga...

2

Bahorning bog‘idan chiqdim yalangbosh,
Yozning ko‘ylagini kiyib xotirjam.
Kuzning shippagida qish turar muz, tosh:
Hisobot beradi, hatto botir ham,
Umrndan dalolat so‘rar u bebosh...

3

Tan zamon husniga to‘yib bo‘lgan,
Lek aslin saqlagan, g‘olib bo‘lgan...
Bir umr komillik istar-u, odam,
Qalbi yetilganda so‘lib bo‘lgan...

4

Arg‘umoq kamalakmi,
Majnuntol jamalakmi,
Sog‘inib oqar anhor,
Men kabi u halakmi?..

Bo'g'zimdan olar havo,
Tozarar lekin qalbim,
Tinglasam sen bir navo,
So'zingda tur deb keldim.

O'qiyman she'r, jo'shaman,
Ko'yingda goh shoshaman.
Vaqt otin minib kelgan
Oshig'ing – men o'shaman...

5

Tunni bo'ylar ogohlaring,
Kunni bo'ylar nigohlaring,
Umidingni so'ndirdi kim,
Yo ko'pmikan gunohlaring?..

Nigohingning rangi qanday,
Sarg'aytdi-ku yaproqlarni.
Intizorlik qara, shunday:
Qurib tashlar ko'priklarni.

Katta daraxt shoxi – ko'prik,
Ikki manzil bog'lovchisi...
O'tar undan barcha tirik,
Anhor – umr chog'lovchisi...

Ko'z yoshingdan yo'l yaltirar,
Bu qay dunyo, bu qanday farq?!

Yuzing asling emas, qarar –
Aldaydi g'arb, shimol-u sharq.

Vazning bormi? – so'rayin-da,
Dardlarimdan berayin-da.
Jur'atsizman, damlar o'tib
Bo'y-aslingni ko'rayin-da...

Uzoqlik ham yaqin bo'lgan,
Oyoq – xazon, nigoh – tuman...
Kutganim ham kelar, bilgum,
Meni yenga olmas – gumon...

Bog'larimning boshi garang,
Tog'larimda tosh urar zang,
Kuzim, seni ardoqlayman,
Lek ahvolim bahor so'rang!..

6

Shabboda boshingni silaydi,
Talpinar-u, qaytar to'lqinlar.
Tog'larki, baxtingni tilaydi,
Yuragimda sevgi salqinlar!..

Bu umrim goh-gohi yonadi,
Maysadek qimtinib qarayman.
Oshiqlar rashkidan tonadi,
Men seni imonga o'rayman!..

2014

* * *

Sirli kosasini sipqarar Ufq,
Tiniqar Oy yuzi, yer yo'lakchasi...
Yulduzlar sham kabi kichrayar kuyib,
Suyub yuksaladi tog'lar ko'lkasi...

Men ham tabiatman, men ham qo'zg'olish –
Bu uyg'oq vujudda kechar jarayon:
Uyg'onar ko'ksimda rostlik, o'zgarish –
«TINCHLIK!» deb porillab yongan g'alayon!..

2016

ALPOMISH SO'ZIM

Har narsaning jufti, toqi bor,
Pisand qilib aytsang, oti bor.
Odobimni farqlay olsang gar –
Sukut, sabr, yer-ko'k farqi bor...

Jim turmog'im dong'im, yoshimdan,
Katta-kichik... yana zotimdan...
Sabr aslo chiqmas tashimga –
Sabrim – birov bilmas totimdan...

So'zlar mag'zin chaqib ol, o'ktam,
Qaqramasin, boqqa suv taray...
Ba'zan bosar ko'k toqi yelkam,
Farqla shuni, endi men boray...

2016

HAYOT OHANGLARI

1

Sabog'ingdan sadom,
Gulbog'ingdan rizq-non,
Dudog'ingdan har on,
Seni sevdim, hayot!

O'tgan kunlar o'tli,
Kim kimlarni kutdi,
Ketgan kunlar ketdi...
Seni sevdim, hayot!

Ko'k pardasin tortgan,
Yolg'iz – otda o'tgan,
Dardmand – tog'da yotgan,
Seni sevdim, hayot!

Birovni ayb etmam,
Xo'shlahmagin, ketmam,
Xushhol damlar o'ktam,
Seni sevdim, hayot!

Sabog'ingdan sadom,
Gulbog'ingdan rizq-don,
Dudog'ingdan har on,
Seni sevdim, hayot!

2

Gal-gali hey, galingga,
Men to'ymadim bolingga,
Uchqur otsan, yopishdim
Yolingga – xayolingga.

Seni sevdim, hayot!

Poyga cho'kkan bo'g'rosan,
O'r-joning sha'n, tug'rosan,
Yal-yaling, hoy, yalingdan,
Sinading xo'p, ko'p bor san.

Seni sevdim, hayot!

3

Dalli dunyo,
Dovoningdan, dolingdan,
Oy yuzida hilpirar
ot yolingdan –
Bir jonivor uchar ko'kka
shunchalik –
Ilhom oti qanotida holingdan.

Seni sevdim, hayot!

Qo'lim cho'zdim ko'kka
yaproq kabi shart,
Yulib ketdi shashtingning
shamollari.
Mahzun yurdim toki
bahor yozar barg,
Oshiq dilin bezar
ishq amallari...

Seni sevdim, hayot!

4

Kunlar raqsi tinmadi,
Tunlar bahsi tinmadi,
Ravon yo'llar tilading,
Tonglar naqshi tinmadi...

Seni sevdim, hayot!

Havo tushar holimga,
Shimoling, shamolingga,
Meni o'rab ketding-ku,
Jiydagul ro'molingga...

Seni sevdim, hayot!

Xayoling-u, jamoling,
Porlab turar a'moling.
Yashayapti men bilan
Kamoling-u uvoling...

Seni sevdim, hayot!

Mendan nari ketmagin,
Mendan arib ketmagin.
Maqsad, manzil ko'p ekan –
Nolib, horib ketmagin!..

Seni sevdim, hayot!

Barorim, borarimsan,
Sabrimsan, qarorimsan.
Sensiz umrim o'tmagay,
Ertamsan, so'rarimsan!..

Seni sevdim, hayot!

Kunlar raqsi tinmadi,
Tunlar bahsi tinmadi,
Ravon yo'llar tilading,
Tonglar naqshi tinmadi!..

Seni sevdim, hayot!

2016

QORAJON BOTIRGA

Boraring bor,
Kelaring bor,
Yer yelkasin
Ko'raring bor.

Elga ishing
Tushib tursa,
Uni obod
Qilaring bor!

Yerga ursa,
Chim bo'lasan,
Ko'kka ursa,
Qum bo'lasan.

Botir bo'lsang,
Olaring bor.
Shotir bo'lsang,
O'laring bor.

Boraring bor,
Kelaring bor,
Zo'r ko'lkasin
Ko'raring bor!..

2016

* * *

Sabrning
Tagida
Kuch bor, ilm bor,
Jabrning
Tagida
Insoniylik yo'q.
Qayerda hilm bor –
Kuch bor, g'ayrat bor,
O'zni boshqarishday
Fidoyilik yo'q!..

2016

DUODAN...

Ogori
to'kilmagan
uzumning,
Bahori
to'qilmagan
so'zimning,
Gullari –
Haqiqat –
Chaman bo'lgan
izimning,
Yo'llari –
Bor ibrat
tuzumning
Manzili porloq,
umri uzoqdir!..

2016

MUSOFIRLAR

- Hayot tog'dan boshlanadi!
- Yo'lim toqqa...
- Lek ortingga bir boq, - deyman:
Qo'nim bog'da!..
Qaysi taqdir sog'lom, deysan, -
Hijron, dog'dir..
«Jannat!» deysan,
Jannatgacha
Vijdon og'rir!..

2016

BAG'ISHLOV

Toshkentimga

O', qay yili boychechak kabi
Jur'atimni yig'dim vokzalga,
Kuzatishdi dovonlar bari
Jo'r bo'lishib she'r-u g'azalga...

Men mustaqil bola edim-da,
O'z o'ylarim o'zim jamlagan,
Garchi o'zga olam dedim-da
Uchish uchun orzu g'amlagan.

Kelajakka shu orzu bilan
Qancha-qancha poyezdlar yurgan,
Shoirlar hur o'ylasa - o'lan,
Qushlar shodon Toshkentga kirgan.

Men Toshkentni ilm bilganman,
Shu maqsadda yonib-yelganman...
Orzularim o'ldirmayin deb,
Jon hovuchlab o'n yil qurganman.

Qarog'imda qirq yillar yashar,
Toshkent - dunyo tanigan shahar.

To'liqlanib ketaman ba'zan,
Bizni birga bilar deb bashar.

Yer silkingan zamondan boshlab
O'ttiz-qirq yil qurildi shahar.
Men to'liqlik o'ylar sohibi –
Ko'kragimni bosar bir asar...

Men ko'klarga intilgan daraxt,
Ildizimga qarab qo'yaman...
Chug'urlashar farzandlar – bir baxt,
Toshkentni men shundan suyaman!..

Bunday onlar to'xtamas bir dam,
Bizni obod qilmoqda taqdir...
Qush qaytgan joy – tabarruk maskan,
Har kim o'sgan onlarga boqur!..

Ko'ngil taxti Toshkanga ko'chgan
Zarbandiy bu – men, Rauf Subhon.
Tetis dengiz to'liqini toshgan
Vujudim sha'n, bor O'zbekiston!

2016

* * *

*It suv bo'yiga
borib o'ladi...*

Mutaxassis gapidan

Ichida it boqqan
Odam tinch turmas,
Tinch tursa iti ham
Tingan bo'ladi.
Suv bo'yiga borsa
Ko'nglida bir sas –
Umrning bir shoxi
Singan bo'ladi...

Ichida it o'lar
Qirg'oqda turar –
Itning vasiyati
Shu joyga kelish.
U endi odamni
Aslo xush ko'rmas,
Maqsad-intihosi
It kabi o'lish...

2017

SURUR

Yerdan yiroq, baland nuqta – mangulik,
Qo'ling cho'zib, yorga qo'shiq aytasan.
Yerga boqsang, o'z tuprog'ing – yangilik,
Yer dumaloq, o'zginangga qaytasan...

2017

AMIR TEMUR

Kim himoya qilar uni umricha –
Agar men so'zlasam, so'zim yasharmi?..
Balki kuchli chiqar, avlodga tortsa,
Balki shu so'z asrar butun basharni?!

Bir daraxt o'tqazsang, yashar adolat,
Bu sirning doimo oshig'i bo'lgin.
Lek ba'zan zindonsan, ko'kayingda qulf,
Insonsan, sen uning koshifi bo'lgin!..

2017

SUKUT

Qarigan toshbaqa
Aft-angoriday –
Jarliklar husnini
O'zgartib bo'lmas,
Unda uxlab qolgan
Tinchlik – kabutar –
O'tmishni uyg'otib,
Qo'zg'atib bo'lmas!..

2017

ZARBAND TONGI

Ko'ksimga qo'lim qo'ysam,
Tuygum yoshlik bongini,
Falak qadar cho'ng kuysan,
Suysang uning tongini.

Men osmonni terakning
Bo'yi bilan o'lchayman,
Xirgoyisi elakning –
Onam yopgan kulcha-non.

Qat'iyatim – tig' shashti –
Otam o'rgan o'roqdan...
Ma'rifatim – cho'g', toshdi –
Qalbim bergan so'roqdan.

Men qanchalik bo'lmayin,
Beg'ubor yurt, his o'sha...
Men qanchalik tolmayin,
So'zim – to'g'ri, hur yasha!..

Ko'ksimga qo'lim qo'ysam,
Tuygum yoshlik bongini,
Falak qadar cho'ng kuysan,
Suysang uning tongini.

2017

FARROSHGA

Kuzning
Ko'krigidan
Itarish qiyin,
Uning
Orqasida qahr,
qish turar...

U endi,
Dunyoni ko'klamda ko'rar,
Kuzligini
Yoz o'tib bilar..
Tashvishin
kuzakdan-kuzakka ular.

2017

Bu olam
keng erur,
aks sado yo'q,
jim...
Bulutlar – mehrimday,
egasiz, to'p-to'p!..

Titragan shoxlarda
hadik-xavotir,
Qarg'alar «qag'»idan
seskanib qo'yar.
Namozshom oldidan
aylab navo,
sir
Ko'kni boshlab tushar –
yong'ir shar-r quyur.

2017

UMRIMIZ MAZMUNI

*Nevaram Abdussalom
tavalludiga*

Kunqoboqli yosh kelsa,
Toshtoboqda osh kelar.
Yulduz – bazmi tomosha,
Qamar ko'kda – qosh kelar.

Ko'ngil bo'ldi chaman-ey,
Porladi hur ertamiz,
Zurriyod – nur rishtamiz,
Farzandimiz – erkamiz.

Muborak, bu tong, olam,
Tangri suygan zo'r bolam –
Umrimizga mazmun, un –
Abdussalom, assalom!..

Umidimiz sarboni,
Endi yiroq dard-u g'am.
Shukr deydi qalbimiz,
Halovat-u hamdi ham...

Ilming ziyod, bag'ring but,
O'z so'zingda sabot bo'l!

Mening umrim yetmagan
Xabarlarga qanot bo'li!

Kunqoboqli yosh kelsa,
Toshtoboqda osh kelar.
Yulduz – bazmi tomosha,
Qamar ko'kda – qosh kelar.

2017

O'ZI

Iymonning rangi tiniq,
Shu sababdan yuz oydin.
Gumonning rangi siniq,
Ko'ngil yorug' – ko'z oydin.

Iltijoda ishq maylin
Har bir mo'minga bergan.
Bu dunyoda so'z xayrin
Amri aminga bergan...

2017

OQTOVDA

Ortingdan tirmashar tanbur-soyalar,
Cho'qqida soz kabi tursang – voya bor.
Darding olar tog'da ungur-qoyalar,
So'ng tuproq-zaminga tushsang – g'oya bor.

2017

BEDAZOR MANZARASI

Yer bag'riga yastandi nazar,
Go'yo to'lqin charchadi, toldi.
Tomiriga bermasdan ozor
Dehqon uni o'rishi qoldi.

Hojat yo'qdir ortiq sayqalga,
Chiqmas, hatto, bedana sasi.
Yangi nafas kerak paykalga,
Bo'g'ilganday yerning nafasi.

Solsang kesmas oyning o'rog'i,
Yerni yopgan beda ko'rpasi.
Kunduz charxlar tunning yarog'in,
Bu ish dehqon uchun birpaslik...

2018

* * *

Meni
«Sen»lamangiz,
Tengligim yomon.
Ortiq
«Siz»lamangiz
«Sen»ligim yomon.

2018

**SHUKRONA
YOXUD
KECHA VA BUGUNIM**

Manzuma

1. Xayol nigohi

Bu hayotni oqar daryo deydilar, uning yo-yiq, yorqin toshqinlari bor. Qator daraxt, gulzor, tosh-qumlari bor. Boqsang mehrlanar ruhing – ko'k diydor.

Toshqinlardan to'lqin, to'lqindan sho'x un urilgan tik qoya bo'lmoqchimisan?.. Yo sohilda chopgan xushsuvrat to'lqin? Xo'p, xayolga boqib, ayt, nega jimsan?

Shu xayol – manziling ko'zlar G'iroting,
Shu xayol – obodlik, mangulik oting...

2. Bir siqim bug'doyi qolgan xalq

Qishdan chiqqan bog'-rog' – dimiqqan diyor,
Bug' ichra qarg'alar hali tark etmay,
Qayta tirilardi Zamin, u beor,
El qushi yer titar bahorni kutmay.

Jannat orzu qilgan er, mardi maydon,
Rizq yo'qdir yutingan halqumga.
Bug'doyni tuproqqa sochar va kutar,
Ochlik olov purkar edi xalqimga...

Butun oriyatning orin olgan kun,
Butun zoriyatning zorin olgan tun,
Lahzalar-u yillar – asrlar butin,
Qadrimni chetlardi, ichimda bir kin.

Inson izi sodda atalmish – tuproq,
Butun mavjudotning zorini olgan.
Vujudim tuproqqa mengzasam haqroq,
Oriyati tirik, borligi tolgan...

Bog'larda nasimlar esdi – epkin hur,
Mayli, otda bo'ldik, turding depsinib...
O'chmadi bobolar yoqqan chiroq-nur,
Garchi tirik yurdik, o'ldik “deb”sinib...

3. Dalaga tun cho'kdi

Yotgan yotibdi. Turgan turibdi. Ochunda o'kinch, Yorqinda yopinch... Changni suv bosar, suv boribdi. Quyoshi botgan qishloq sokin, tinch. Eh-he-he, o'tar qancha lahzalar, hovuchingda suv, bir qism tuproqni tushundik

sen va men, hali bahstlab savollar ham ko'p.
Doim aytganing: "Ko'kdan tushganmi bular?!" –
deysan-u, gapdan qaytganing – ma'ni izlashing,
chidab, iymanib. "Birga yashaymiz!" yangraydi
shu sas, hali osmonlar ham egasiz emas.

4. "OY" muroqabasi

Oy ko'ksimga botsang, suvlar tinadi,
Maqsading kuydirmoq emas, sog'inmoq.
Otsang sururimdan bog'lar inadi,
Gumon yo'q, tun bag'ri oydin, tag'in oq.

Kelajakka eltar yelkan xayollar,
Oy nur ummonida qo'rg'onlar qurdi.
Tun. Soch farishtasin yoydi ayollar,
Oyni ergashtirgan alplarni ko'rdi.

Shukrning sayqali ko'kda sayr etar,
Unga boqar barcha "yoriltosh"idan.
Tin olsam ko'zimdir makoning botar,
Umidim, orzuim ko'rgum bir boshdan.

Yuragimga sokin o'tding, so'ng bilsam,
Dunyo tashvishlarin sen mendan olding.
Vaqtini nari surgan, aritgan tilsim,
"Yolg'iz qulsan!" deding, qalbga ishq solding.

5. Endi ko'z ochmoqlik imkoni yetdi,
Fano maromida o'tdi ko'p yilim.
Qator nafs tog'lari qayoqqa ketdi,
Eslab qolganim – to'q maqsad, keng yo'lim.

Qad rostlabdi shahar ichra shaharlar,
Toza havosi xush ozod bu tanga.
Har yurakda yashar ekan bahorlar,
Tinch-totuv kurashchi kerak Vatanga.

Vatan bilib doim taqdir bozorin,
Har istakka ravo ko'rmay mozorin,
Yashaylik sinovda, mayli, har onni,
Haq bermasin bizga achchiq ozorin!

Oy ko'ksimga botsang, suvlar tinadi,
Maqsading kuydirmoq emas, sog'inmoq.
Otsang sururimdan bog'lar inadi,
Gumon yo'q, tun bag'ri oydin, tag'in oq.

6. Umid kemasi

Oy – umid kemasi, xayol emas dun,
Mehrinqizg'anganday uxlay olmas tun.
Qanotida kunduz titrar qushlar jim,
Ko'kdan malham olar ko'nglim – munajjim.

Xiyol xush on o'tdi – zarrai umr,
Xayol oshyonimni qurshab tog' – sabr.
Ishq – qulf tirqishida yuksalغان yoshlik,
Oshiq har hushiga izlardi ta'bir.

Kuzak. Yaproqlardan tomar tomchilar,
Vujudimda yashar jumlai jahon.
Qushlar uchib ketar, bog'lar bo'sh chunon,
Poyimda yastanar bir hazin ohang...

Kuyladim, kuy kabi yuksalib bordim,
Telegramda tun sekin nuray boshlaydi.
Tomchilar – xitoblar, ash'orlar bitsam
Shu ohangni Vatan so'ray boshlaydi.

7. Bugunning qalbi bor...

Mana, zamon keldi – bizni tinglarlar,
Xalqim desang, rahmat aytar, anglarlar.
Nafsin tiymas temir kemirar endi,
Endi o'z-o'zidan yurib zanglarlar...

Bu yurtda har jonning endi qadri bor,
Bu yurtning qalbi bor, halovat Haqdan!
Yurtparvar ko'p o'tgan, xalq bo'lgan abgor –
Hayot daraxtini yorishgan, yoqqan.

Qadrimni shunchalik uzoqroq kutdim,
Ko'zimga aylandi har tonggi matla'.
Bir kunda necha kun zahrini yutdim,
Shukur, endi bekor umidim qatli...

Jannatmonand demoq o'zi bo'lmadi,
O'sha asrab yurgan mehrim – bo'stonim!
Niyatim ijobat, shukrim o'lmadi,
Dunyolar tan olgan O'zbekistonim!

* * *

Bu hayotni oqar daryo deydilar, uning yo-
yiq, yorqin toshqinlari bor. Qator daraxt, gulzor,
tosh-qumlari bor. Boqsang mehrlanar ruhing –
ko'k diydor.

Toshqinlardan to'liqin, to'liqindan sho'x un
urilgan tik qoya bo'lmoqchimisani?.. Yo sohilda
chopgan xushsuvrat to'liqin? Xo'p, xayolga bo-
qib, ayt, nega jimsan?

Shu xayol – manziling ko'zlar G'iroting,
Shu xayol – obodlik, mangulik oting...

2018

UFQ. DUNYODA TUN MANZARASI

Yer, manzilda oh kammi,
Man – zil, juda og'ir bu.
Maqsadlarga mahkamman,
Ko'ngilqushga jabr bu.

Bir yostiqqa bosh qo'ygan,
Nafas olar yer-u ko'k.
Yulduz tushar yo ko'kdan,
Yo uchganday yerdan o'q!..

2019

YIG'I

Singlim Oyro'zi xotirasiga

*Beshafqat diydormi
og'ir judolik...*

Yo'ldosh ESHBEK

1. Soch-soqolni chirpib qaridi qaychi,
Qay ovqat g'amini ko'rganday pichoq.
Tun yonar nimchiroq ortida... Qo'y-chi,
«Biz necha jon edik?..» – chirsillar o'choq.
Ko'chada «Hay-hay»lar shom mahal moychi.

2. Akamanmi men ham qadring bilmasam,
G'alvir ko'targulik qudrat topilar.
Non yopilmas onang, singling bo'lmasa,
Uy odobi yo'qlar elda gap bo'lar.
Oriyating sinmas otang o'lmasa.

3. O'tgan u kunlarni umring tasvirlar,
Odam «yengil» bo'lsa tuprog'i og'ir.
Bildirish berarkan ilohiy sirlar,
«Og'ir»ga yer yengil, poyoni – sabr..
Men cho'kdim, yer o'sdi – qabriston, qirlar.

4. Ko'nglim to'ldirarding uyingga boshlab,
Otamni, onamni senda ko'rardim.
Singiljon, sen ketding ko'nglimni g'ashlab,
Tirik xotirotim bor deb yurardim.
Men cho'kdim, yer o'sdi ko'zlarim yoshlab...

2020

XALQONA

Uzun-uzun gaplaring
O'rsam o'rilmas ekan,
O'rim-o'rim sochlaring –
Qamching, urilmas ekan.

Men quolsiz oshiqman,
Imkon berilmas ekan.
Bu g'aflatda yo'llar ham
Changda ko'rinmas ekan.

2020

* * *

Sen
Menga
Dunyoni
Bo'yab ko'rsatma,
Uyat ko'rsatmagin,
Suyab ko'rsatma.

Tiriklik -
Hammaga berilgan ne'mat.
Hayo ko'rsatgin, bas,
Hayot ko'rsatgin!..

2020

PANDEMIYA

*Mushtimni qayoqqa uraman,
Dushmanning yuzi yo'q, yuzi yo'q.*

Yo'ldosh ESHBEK

Yaxshi-yomon – vujud ichra zo'r xurush,
Biling: harom-xarish aralash bo'lmas.
Xudoni tanitar boshlangan urush,
Yaxshidan nom qolar, yaxshilar o'lmas.

Yuzga aytib ko'ring qahringiz bahsda,
Aqlingiz peshlab-u, «siz» demay, «sen»lab.
Kibr-u gunohlardan zahringiz toshsa,
Ojiz javraydursiz, o'zingiz o'nglab.

Dushmanni qidirib nima qilasz,
Qurollarni qadab, o'rnatib qo'yib.
Bombalar yaratib, do'st qidirasz,
Past ketasz, do'stga qo'chqorlar so'yib.

Qahramon qidirib nima qilasz,
Qahramon – iymonin asray bilganlar.
Tutimingiz to'g'ri kelmas, kulasiz,
Bilsangiz bu urush gunoh qilgandan.

Dushman tarqab ketdi ro'yi zaminga,
Tarqaldi vatansiz qochoqlar kabi.

Kimlar gunoh qildi, balki bilarsiz,
Dunyoni yoqmoqda yo'qlikning ta'bi.

Kurashgan jon, qadr uchun kuyinar,
Suyinar: saqlanar jannat degan sas!
Xudo, desak, qolib ketsa o'yinlar..
Dunyoni uyg'otar millat degan sas!

2020

**QARDON DARVOZA
OLDIDA O'YLAR**

*Ota-onam chirog'ini yoqqan
ukam Abduvohidga*

Tavalludim shu makonda – hur vatanda,
Tog'-u qirlar qurshovidan talpinganman.
Uchib-qo'ngan qush kabiman, onda-sonda
Esib turgan shabadasin to'lqiniman.

Orasta yo'l, oromingni buzdim, kechir,
So'rashga qo'y: tinch-omonmi, ukam, singlim.
Dil-g'uborim, zor-u zorim birla ko'chib,
Biron joyda tinch turmadim, shunda... tingum.

Zarband el bu – o'r qirlari zar bosgan joy,
Tog' havosi, bog' navosi sirband tuproq.
Buloq, suvloq, o'tloq, terak, shivirlar soy,
Katta-kichik ummondan ham sevgum ko'proq.

Tovonimni qirib olsa qirq yil qahri –
Oyog'imga kirgan tikon ohim to'kar.
Ota-onam qabri shunda, shunda mehri,
O'z qadrimga kelgan yig'i qaddim bukar.

Qizg'aldoqlar ochilibdi, qirlar go'zal,
Ukam qarshi olar, Oqtov – qadri azal.

Yana kelding, is bosgansan, uydan ketib,
Qo'lingni cho'z, darvozani ochgin, uzal!..

Tavalludim shu makonda – hur vatanda,
Tog'-u qirlar qurshovidan talpinganman.
Uchib-qo'ngan qush kabiman, onda-sonda
Esib turgan shabadasin to'lqiniman.

2020

YURT MADHI

*O'zbekiston islom sivilizatsiyasi
markazi qurilishiga*

Sirlarimni ulkan daraxtga aytdim,
Balki aytgandirman mehr so'zlarim.
Yashnab yaproq yozsa hayotga qaytdim,
Xazon tashlab shoxin yoysa bo'zladim.

Shunday o'rgatarding o'zing hayotga,
Goh mahzun, mung'aygan butoqlaringni.
Seni ishonmasdim bironta yotga,
Siypalab ketardim qadoqlaringni.

Bir kun shamol turdi, to'polon surdi,
Ko'z ochsam sinibdi yetuk daraxtim.
Qayerda qoramol mo'lab, it hurdi,
Titardi yer quchgan ildizlar baxti.

Bo'lindi kundalar, shoxlar birma-bir,
Olib ketishdilar, qayga, bilmadim...
Qay vijdon isindi, o'tkazib jabr,
Sabr qildim, ildiz o'sdi, o'lmadi.

O'sha talon-toroj baxtimni eslab,
Yangi dardlarimni aytib turibman.
Bir paytlar ochunga tarqagan hislar –
Sohir bitiklarim terib yuribman.

Shu hisga tolibdir olim-u xoqon,
Qalbing tozalaydi, istagingni ayt.
Tamaddun daraxtin saqlagan Vatan –
O‘zbekiston – ziyo maskaniga qayt!..

2020

QIZG'ALDOQZORDA

"Oqto'v manzarasi" turkumidan

A. Saidga

Suruvlarga bag'ri to'lsin,
Jo'shar tog' taraf.
"Kunbotar qush mehmon bo'lsin",
Shivirlar terak.

Bedazorda nasim naqshi –
Bahoriy tilak...
Shudringlarda olam aksi,
Mavjlanar yurak.

Chuchmomagul ko'ylak kiygan
Gulshan azaldan,
Bedanalar sayrarlar mast
So'zsiz g'azaldan.

Halovat – baxt, yetish mumkin,
Garchi fursat bor.
Yurarga yo'l manzilmikin,
Kun bo'y ko'rsatar?!

Endi menga yo'llov emas,
Duongiz kerak.
Quyosh birla botayapman
Qiblaga qarab...

2021

MUNDARIJA

Yantoqzorda.....	3
“Hurmat qilardingiz...”.....	4
“Biz ko‘nikamiz...”.....	4
“Sevgilim...”.....	4
Tenglik.....	5
Siz ham eslaysizmi?.....	6
“Noma yozib so‘rabsan...”.....	8
Holat.....	9
Hayvonlarning muhim yig‘ini.....	10
“Ayiq...”.....	10
“Vaqt...”.....	11
“Sening so‘zlaring...”.....	11
“O‘zingni...”.....	12
Tushkunlikka tushgan do‘stimga.....	13
Bolalik do‘stimning aytgani.....	14
“Samarqand...”.....	14
Bekatda.....	15
“Men seni...”.....	16
Tongda.....	16
“Til aylanar...”.....	17
Kungaboqar.....	17
Xotira kungi ziyorat.....	18
Shaharga yo‘l.....	19
Yolg‘izlikni tasavvur qilish.....	20
Onamning xati.....	21
“Tun meni...”.....	22
Mustaqil bola.....	23
“Agar iqtidori...”.....	23

Shaxmat xayollar	24
“Ey, to‘ti!..”	25
Tadrij	26
So‘zlarim	28
So‘nggi lahza.....	29
Munojot.....	29
Bahorning birinchi kunlari	30
Bolalik kunlarimda.....	32
Tunda	33
“Bulutlar..”	34
Tushunchalar	34
“Sovuqdan qoraysa..”	35
“Men xunuk kulaman..”	36
“Bir tutam kun..”	37
Qirq kun	38
“Yomg‘ir-yomg‘ir..”	39
Bedorlik.....	40
“Diydorlar g‘animat..”	41
E‘tiqod.....	42
She‘riyat	42
Qushlar qo‘shig‘i.....	44
“Bilaman..”	46
Ustoz-shogird.....	47
“Ko‘zlaringga boqaman..”	48
Baxshiyona.....	49
“Ilinib yashashning..”	51
“Dunyoda eng shirin..”	51
“Ko‘zimga ilingan..”	51
Kundalik odam	52
Vatan.....	53
Tanish iboralar	54
Darchadan boshlangan hayot	55

Bemorlikda tun manzarasi	56
Ilm istagi	57
Qudratli yurtda	58
Intizorlik	59
Oqtoxda	61
“Qora tunni...”	62
So‘nayotgan ko‘z hasrati.....	63
Abdulla Qodiriy	65
Dard tog‘i	66
Ohu	67
“Oynai jahon” ishq.....	68
“Tunda nidolarim...”	68
Qanotlarim.....	69
“Oy yerga cho‘kadi...”	70
“Shamol yo‘llariga...”	71
“Noqis hodisa...”	72
Qish.....	73
Iqtidor	74
Til.....	75
Oila	76
Kech kuz.....	77
“Sirli kosasini...”	80
Alpomish so‘zim	81
Hayot ohanglari	82
Qorajon botirga.....	86
“Sabrning tagida...”	87
Duodan.....	88
Musofirlar.....	89
Bag‘ishlov.....	90
“Ichida it boqqan...”	92
Surur.....	93
Amir Temur	93
Sukut.....	94
Zarband tongi	95

Farroshga.....	96
Yomg'ir.....	97
Umrimiz mazmuni	99
O'zi.....	100
Oqtovda	101
Bedazor manzarasi.....	101
“Meni “sen”lamangiz...”	102
Shukrona yoxud kecha va bugunim.....	103
Ufq. Dunyoda tun manzarasi.....	109
Yig'i.....	109
Xalqona	111
“Sen menga...”	112
Pandemiya.....	113
Qadrdon darvoza oldida o'ylar	115
Yurt madhi.....	117
Qizg'aldoqzorda.....	119

Adabiy-badiiy nashr

Rauf SUBHON

XAYOL NIGOHI

She'rlar, nasr-u navo, manzuma

Muharrir: *D. Mingboyeva*

Badiiy muharrir: *F. Ermatov*

Sahifalovchi: *A. Qayumov*

Musahhih: *D. Mahmudova*

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
«ADABIYOT NASHRIYOTI» MCHJ

Nashriyot litsenziyasi: AI № AA 0043. 27.01.2021.
100129, Toshkent shahri, Markaz-15. 1/90.



(+98) 128-30-04.

Bosishga 20.03.2021-yilda ruxsat etildi.

Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi: 70x90 ¹/₃₂.

Ofset bosma. Shartli b.t. 3.9.

Adadi: 2000 nusxa. Buyurtma №

“AZMIR NASHR PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
100200, Toshkent shahri, Adham Rahmat ko'chasi, 10-uy.